

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

National and cultural features of brand names	589
D.R.Ismoilova	
Ingliz va o'zbek tillaridagi "Qotillik" mikromaydoni.....	596
X.P.Shodmonov	
Idiostil va stilistik konvergensiya munosabatining lingvopoetik tadqiqi.....	601
X.Matnazarova	
Diskurs tenorida adresant rollarning lingvistik tahlili	606
J.Q.Ismonaliyev	
Zamonaviy o'zbek tilshunosligida fe'l va zamonlarning o'rganilishi	609
M.A.Abdulimova	
Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidagi o'xshatishlarning mazmuniga ko'ra turlari .	612



UO'K: 81'373

IDIOSTIL VA STILISTIK KONVERGENSIYA MUNOSABATINING LINGVOPOETIK TADQIQI**ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ СООТНОШЕНИЯ ИДИОСТИЛЯ И СТИЛИСТИЧЕСКОЙ КОНВЕРГЕНЦИИ****LINGUOPOEIC STUDY OF THE RELATIONSHIP OF IDIO STYLE AND STYLISTIC CONVERGENCE**

Shodmonov Xolmatjon Po'latjon o'g'li 
Farg'ona davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi.

Annotatsiya

Maqolada keyingi yillarda tilshunoslikda yuzaga kelgan lisoniy hodisalar tadqiqiga yangicha yondashuvlar haqida ma'lumot berish bilan birga, zamonaviy yo'nalish va tahlil metodlaridan biri hisoblangan antropotsentrik yondashuvga alohida to'xtalib o'tilgan. Bunda muallifning o'ziga xos nutq yaratish uslubi – idiositili antropotsentrik yondashuv mahsuli sifatida baholanadi. Lisoniy vositalarini uslubiy tahlil etishda ularning nutq ichida ma'lum bir maqsad uchun funkcionallashuvi, so'z qo'llash meyorlari, sintaktik qurilmalarning o'ziga xos tarzda shakllanishiga e'tibor bermay, bayon uslubiga diqqat qaratmay turib, muallif idiositilini aniqlab bo'lmasligi, muallif idiositilini aniqlash tilshunoslikning barcha tadqiqot metodlaridan unumli foydalanib, unga turli aspektlarda yondashishni taqozo etishi, chunki muallif idiositilida ona tilining lingvistik vositalari tizimi kompleksi to'la aks etishi, shu bilan birga, muallif idiositilini tilni yangi birlik va vositalar bilan boyishi uchun manba bo'lib ham xizmat qilishi dalillanadi. Shuningdek, sintaktik-stilistik vositalardan bir nechtasining birgalikda qo'llanishi natijasida stilistik konvergensiya hosil bo'lishi, bu hodisa muallif idiositilining bir belgisi sifatida qaralishi va bunda nutq tarkibidagi stilistik o'zgarishlar hamda nutqning badiiy estetik funksiyasiga ta'siri masalalari haqida fikr yuritiladi.

Аннотация

В статье представлена информация о новых подходах к изучению языковых явлений, возникших в лингвистике в последние годы, и акцентируется внимание на антропоцентрическом подходе, который считается одним из современных направлений и методов лингвистического анализа. При этом уникальный авторский стиль речевого творчества – идиостиль оценивается как продукт антропоцентрического подхода. При методологическом анализе языковых средств невозможно определить авторский идиостиль, не обращая внимания на их функционализацию для определенной цели в речи, нормы словоупотребления, своеобразие формирования синтаксических приемов, а также не обращая внимания на повествовательность. Доказано, что авторский идиостиль является полным отражением системы языковых средств родного языка, и в то же время авторский идиостиль служит источником обогащения языка новыми единицами и средствами. Также, рассматривается стиллистическая конвергенция, формирующаяся в результате совместного использования нескольких синтаксико-стилистических средств, и явление как признак авторского идиостиля, а также вопросы стиллистических изменений в структуре и воздействия художественно-эстетической функции речи.

Abstract

The article provides information about new approaches to the study of linguistic phenomena that have emerged in linguistics in recent years, and focuses on the anthropocentric approach, which is considered one of the modern directions and methods of linguistic analysis. At the same time, the author's unique style of speech creativity – idiositile – is assessed as a product of an anthropocentric approach. In the methodological analysis of linguistic means, it is impossible to determine the author's idiositile without paying attention to their functionalization for a specific purpose in speech, norms of word usage, the originality of the formation of syntactic devices, and also without paying attention to narration. It has been proven that the author's idiositile is a complete reflection of the system of linguistic means of the native language, and at the same time, the author's idiositile serves as a source of enriching the language with new units and means. Also, stylistic convergence, formed as a result of the joint use of several syntactical and stylistic means, and the phenomenon as a sign of the author's idiositile, as well as issues of stylistic changes in the structure and the impact of the artistic and aesthetic function of speech, are considered.

Kalit so'zlar: antropotsentrik yondashuv, idiositil, sintaktik-stilistik figura, konvergensiya, paradigmatika, sintagmatika, sintaktik figura, takror, uslubiy vosita, struktural paralelizm, sintaktik takror, antiteza, kontrast.

Ключевые слова: антропоцентрический подход, идиостиль, синтаксически-стилистическая фигура, конвергенция, парадигматика, синтагматика, синтаксическая фигура, повтор, методический инструмент, структурный параллелизм, синтаксический повтор, антитеза, контраст.

Key words: anthropocentric approach, idiostyle, syntactic-stylistic figure, convergence, paradigmatics, syntagmatics, syntactic figure, repetition, methodological tool, structural parallelism, syntactic repetition, antithesis, contrast.

KIRISH

Keyingi yillarda jahon tilshunosligida olib borilayotgan tadqiqotlar lisoniy hodisalarni strukturalizm metodlari asosida tadqiq etishdan tashqariga chiqib, turli yangi yo'nalishlarda olib borilmoqda. Shunga ko'ra, inson kommunikativ faoliyati mahsuli bo'lgan nutq tadqiqiga yangicha yondashuvlar yuzaga keldi. Hozirgi zamonaviy tilshunoslikda inson nutqi va boshqa lisoniy hodisalarni o'rganishda quyidagi asosiy yondashuvlar ommalashgan: a) lingvotsentrik yondashuv ("til - nutq" munosabatlari aspekti); b) matn (nutq)ga yo'naltirilgan (tekstotsentrik) yondashuv (bunda matn(nutq) alohida struktural-semantik bir butunlik sifatida muloqot ishtirokchilari munosabatiga e'tibor qaratilmay matn (nutq)ning o'zi tahlil qilinishi); v) antropotsentrik yondashuv (muallif – matn (nutq) – o'quvchi (tinglovchi) munosabati aspekti); g) kognitiv yondashuv (muallif-matn (nutq)-matndan tashqaridagi faoliyat korrelyatsiyasi aspekti) [1,97].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Idiostil, konvergensiya, xususan, sintaktik-stilistik figuralar konvergensiya masalalariga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarda har bir tadqiqotchi mazkur yo'nalishda sintaktik-stilistik figuralar haqida, ularning badiiy va poetik nutqni shakllantirish, bunday nutq turlarida badiiy-estetik ta'siriylikni ta'minlash bo'yicha turli mulohazalarni bildirib o'tgan bo'lsalar-da, sintaktik-stilistik figuralarning doiraviy-aralish, ya'ni konvergensiya tartibda qo'llanishi bo'yicha yetarli ma'lumot berib o'tmaganlar.

Tilshunoslikda sintaktik-stilistik figuralar masalalariga bag'ishlangan ishlarda, jumladan, M.T.Abdupattoyev[2], I.V.Arnold [3], V.Riffaterre [4], T.G.Vinokur [5]larning ishlarida sintaktik-stilistik figuralarga yondashuv turli aspektlarda amalga oshirilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Matnni tahlil qilishda lingvotsentrik yondashuv eng an'anaviy hisoblanadi. uning mazmuni shundan iboratki, bunda badiiy matn kontekstida lisoniy birliklar va kategoriyalarning qo'llanishini o'rganishga e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari til birliklarining stilistik xususiyatlari va so'z estetikasi masalalari ham o'rganiladi. Ushbu yondashuvning tahlil predmeti leksik va fonetik, grammatik, uslubiy birliklar va kategoriyalar bo'lishi ham mumkin. Ushbu yondashuvning ahamiyati shundaki, ma'lum birliklarning funksional xususiyatlarini yoritish, ma'lum bir yozuvchi yoki shoirning o'ziga xos individual uslubini ochib berish uchun xizmat qiladi. Matnga yo'naltirilgan (tekstotsentrik) yondashuv esa matnga ijodiy faoliyat mahsuli sifatida qarashga asoslanadi, Bunda matn to'liq tugallangan tadqiqot obyekti sifatida qaraladi va uning semantikasi, grammatik (sintaktik) qurilishi, uni birlik sifatida tashkil etuvchi qurilmalarning o'zaro bog'lanish qonuniyatlari o'rganiladi. Matnning yirik nutqiy asar sifatida o'ziga xos kategoriyalari va shakllanish qonuniyatlarini o'rganish ham mazkur yondashuv kompetensiyasiga kiradi.

Matnni o'rganishga kognitiv yondashuv esa tilni olam va odam haqidagi jamiki bilim va ma'lumotlarni ifoda etuvchi asosiy vosita ekanligidan kelib chiqadi hamda matn nutq mahsuli sifatida barcha ma'lumotlarni o'zida aks ettiruvchi predmet (tadqiqot obyekti) ekanligiga urg'u beriladi. Kognitiv paradigmadagi badiiy matn muallifning obyektiv olam va tasvirlanayotgan voqelik haqidagi bilimi va individual tasavvurlari mahsuli sifatida tadqiq etiladi.

Matnga antropotsentrik yondashuv matn interpretatsiyasi bilan bog'liq bo'lib, uning yaratilishida muallif pozitsiyasi va o'quvchi tomonidan fikr, xabar va ma'lumotlarning qanday qabul qilinishini tadqiq etadi. Bir so'z bilan aytganda, muallif va o'quvchi munosabatini o'rganadi. Antropotsentrik tahlil tadqiqotlarning yo'nalishiga ko'ra psixolingistik, derivatsion, kommunikativ, pragmatik va nutqiy (matn janri hamda uslubiyati) masalalarini o'z ichiga oladi. Bunda asosiy e'tibor lisoniy birlik yoki lisoniy hodisalarga emas, balki nutq muallifi – nutq yaratuvchisiga, uning matn (nutq) yaratish mahorati, o'ziga xos uslubi kabi masalalarga qaratiladi. Bunda muallifning o'ziga xos uslubi – idiostili tadqiqot obyekti sifatida birinchi planga chiqadi.

TILSHUNOSLIK

Poetik asarlarning lingvopoetik tahliliga qaratilgan tadqiqotlarda ijodkor uslubi – idioslili ijodkor badiiy olamini yoritish uchun xizmat qiluvchi lisoniy usul va vositalarning murakkab tizimi sifatida ta'riflanadi [2,188]. Mazkur ta'rif ijodkorning so'z tanlash va fikrni bayon qilish uslubida faqat o'zigagina xos bo'lgan va faqat o'zi amal qiladigan lisoniy qonuniyatlarni o'ziga bo'ysundirishini ko'rsatadi.

Lisoniy vositalarini uslubiy tahlil etishda ularning nutq ichida ma'lum bir maqsad uchun funkcionallashuvi, so'z qo'llash meyorlari, sintaktik qurilmalarning o'ziga xos tarzda shakllanishiga e'tibor bermay, bayon uslubiga diqqat qaratmay turib, muallif idioslili aniqlab bo'lmaydi. Muallif idioslili aniqlash tilshunoslikning barcha tadqiqot metodlaridan unumli foydalanib, unga turli aspektlarda yondashishni taqozo etadi, chunki muallif idioslilida ona tilining lingvistik vositalari tizimi kompleksi to'la aks etadi. Shu bilan birga, muallif idioslili tilni yangi birlik va vositalar bilan boyishi uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi zamon tilshunosligida an'anaviy strukturalizm metodlari o'zlashtirilgan holda, ijodkor tili va uslubi, muallifning badiiy olami, poetik dunyosini o'zida aks ettiruvchi idioslili tadqiq etish dolzarb masala bo'lib turibdi. Bunda tilshunoslik va adabiyotshunoslik mezonlarini umumlashtirish asosida tadqiqotlar olib borish nazarda tutiladi. Mazkur fanlar strategiyasida har ikkisi uchun ham tadqiqot obyekti bo'lgan badiiy asar tadqiqi yotadi. Tilshunoslik uchun asarning til birliklari tahlili, adabiyotshunoslik uchun esa badiiy-estetik tadqiqi muhimdir [3,382]. Mazkur fakt fanlar interpretatsiyasida bir xil va mos keluvchi hamda bir-birini to'ldiruvchi mezonlarni ham belgilaydi. Muallif idioslili masalasiga ham shu nuqtai nazardan yondashish maqsadga muvofiqdir. Muallif idioslili aniqlashda tilshunoslikda kommunikativ birliklarning qo'llanishi, til va uslub masalalariga e'tibor qaratilsa, adabiyotshunoslikda janriy-uslubiy va badiiy-estetik masalalar o'rganilishi lozim [3,287].

Tilshunoslikda muallif tomonidan til birliklarining qo'llanishidagi o'ziga xoslik tahlil qilinadi. Muallifning so'z qo'llash mahorati grammatik, paradigmatic, semantik-sintaktik va assotsiativ munosabatlar doirasida o'rganilishi maqsadga muvofiqdir. Ayrim ijodkorlar asarlarida noadabiy birliklarning qo'llanishi shuni taqozo etadi. Masalan: yozuvchi Tog'ay Murod asarlarida dialektizmlarning ko'p qo'llanishi, gap qurilishining originalligi uslubiy o'ziga xoslik hisoblanadi. Shuningdek, idioslili o'ziga xosligi va takrorlanmasligi kognitiv tadqiqotlar doirasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Muallif tilining bu jihatdan tahlil qilinishi obyektiv olamning muallif tomonidan tasvirlangan mazmuniy maydonini aniqlash imkoniyatini beradi.

Bundan tashqari, idioslili aniqlashda nutq muallifining kommunikativ ehtiyojini qondirish jarayonida, so'zlovchi sifatida kommunikativ nutqiy vaziyatdan kelib chiqib, fikr va tuyg'ularini ifoda eta olish darajasi lingvistik mezonlar asosida tahlil etiladi. Muallif tilining o'ziga xosligi borliqni qanday tasavvur etishi va til vositalari yordamida uni tasvirlay olish darajasida ham ko'zga tashlanadi. Idioslili o'rganilishida muallif tomonidan yaratilgan poetik nutqning sintaktik tahlili mantiqan o'zini oqlaydi. Bu jarayonda muallif tomonidan ishlatilgan leksik birliklarga emas, muallif fikrini iyerarxik tarzda rivojlantiruvchi sintaktik qurilmalar – so'z birikmalari, gaplar, ularning turlari (sodda, qo'shma, murakkab gaplar) supersintaktik butunliklar va ularning shakllanish jarayoni tadqiq etiladi. Muallifning sintaktik qurilmalarni tuzishdagi o'ziga xosligi, sintaktik qonuniyatlarga qay darajada amal qilishi yoki mazkur qonuniyatlar talablaridan (ma'lum bir stilistik maqsadda) chetga chiqish holatlari ko'rib chiqiladi. Idioslili tadqiqida, eng avvalo, muallifning badiiy asar matnini yaratishda umumiy qonuniyat va tamoyillarga amal qilmaslik, grammatik qonuniyatlardan chetlashish, o'z falsafiy qarashlari bayonida "g'ayritabiiy" usul va vositalardan foydalanish darajasi diqqat markazida turadi. Lekin bu ijodkorlar doimo grammatik qonuniyatlarni chetlab o'tib asar yaratadilar, degani emas. Muallif doimo ma'lum bir tilning egasi sifatida shu tilga xos bo'lgan qonunlarga doimo amal qiladi. Faqat bayon uslubi va so'z qo'llashda o'ziga xosliklar kuzatiladi. Ayrim hollarda ma'lum bir personaj nutqining o'ziga xosligini ko'rsatishda yoki uning xarakterini tasvirlashda haddan ortiq chekinishlar bo'lishi mumkin. Idioslili asarda barcha til sathlariga oid birlik vositalarning qanday usulda qo'llanilishini belgilaydi.

Shu ma'noda yakka bir muallifning nutq yaratish, tilning badiiy-tasviriy vositalaridan foydalanish mahoratini o'rganish ham kun tartibida dolzarblik kasb etib kelmoqda. Ayniqsa, "birgina stilistik funksiyani bajarish maqsadida bir nechta stilistik usul va vositalarning birgalikda qo'llanishiga asoslangan"[4,17] stilistik konvergensiya hodisasi doirasida muallif idioslili o'rganilganda, tadqiqotchi o'zining to'laqonli maqsadiga erishadi.

Konvergensiya atamasi birinchi marta nemis tilshunosi M. Riffater tomonidan qo'llanilgan bo'lib, u bu tushunchaga quyidagicha ta'rif beradi: "Konvergensiya – bu, ma'lum bir stilistik maqsadda ikki va undan ortiq sintaktik-stilistik vositalarning birgalikda qo'llanishi natijasida yuzaga yuzaga keluvchi nutq hodisasidir"[4,19].

Stilistik konvergensiya hodisasining badiiy matnlar tarkibidagi ishtirokini o'rganish qaysidir ma'noda muallif idiositilini aniqlash va baholashning lisoniy mezonlaridan biri sanaladi.

Qo'yilayotgan masalaning mohiyati va dolzarbligi shundaki, stilistik konvergensiyaning matnning kommunikativ stilistikasi, kognitiv lingvistika, antropotsentrizm nazariyasi sohalari bilan kesishuvida o'rganilishi til shaxsining asosiy lingvistik belgi xususiyatlarini, ya'ni nutq muallifining kommunikatsiya jarayonida matn (nutq) yaratish va o'quvchiga ta'sir qilish mexanizmini shakllantirish mahoratini o'rganishga yordam beradi. Zero, "lisoniy tadqiqotlarda masalaga bir nechta soha nuqtai nazaridan va bir nechta soha mezonlar asosidagi yondashuv tilshunoslikda samarali natijalarga olib keladi [5,117].

Muallif idiositilini o'rganishda kommunikativ yondashuvga asoslanish aniq bir til shaxsining o'quvchi bilan muloqoti natijasida nutq strategiyasini belgilab olishi va axborotni yetkazish uchun individual vositalarni tanlash imkoniyatidan foydalana olish imkoniyatini yaratadi. Bu esa o'z navbatida muloqot jarayonida muallifning keng ko'lamli kommunikativ maqsadini aniqlab beruvchi kognitiv yo'nalishini belgilaydi. Kommunikativ maqsadni yuzaga chiqarishda stilistik konvergensiyaning qo'llanilishi tinglovchi yoki o'quvchi diqqatini matndagi asosiy axborotga o'ziga tortuvchi ta'sir mexanizmlaridan to'liq va aniq foydalanish imkoniyatini beradi va matnning shakllanishi, matn mazmunini stilistik bo'yoqlar vositasida ta'sirli yetkazilishi uchun xizmat qiladi.

Stilistik vositalar konvergensiyasi yordamida muallif eng muhim axborotlarni birinchi planga chiqaradi va asosiy fikr-g'oyani yorituvchi lisoniy birliklar ma'nosiga alohida urg'u beradi. Shu usulda konvergensiya muallif idiositilida til shaxsi tomonidan obyektiv borliqning alohida va takrorlanmas tasviri yaratiladi, shu bilan birga matn interpretatsiyasi va muallifning pragmatik manerasi amalga oshiriladi. Bundan tashqari, konvergensiya nutq muallifining adresatga bo'lgan munosabatini ham aks ettiradi va matn qismlarini bog'lagan, matnning o'qilishi uchun qulayligi va uning mazmunini tushunarli va ta'sirliligini ta'minlagan holda, o'quvchi diqqatini eng muhim informatsiyalarga qaratadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, stilistik konvergensiya usuli bitta matn yoki matn parchasida bir nechta sintaktik-stilistik figura va vositalarning birgalikda qo'llanishiga asoslanadi. U orqali fikr tinglovchiga oson, qulay, obrazli va ta'sirli holda yetkaziladi, shu bilan birga nutqda stilistik bo'yoqdorlik va ekspressivlik ta'minlanadi. Ayniqsa, mahoratli va idiositili to'la shakllangan tajribali ijodkorlar tomonidan shakllantirilgan matnlarda bu yaqqol ko'zga tashlanadi.

Misollarga murojaat qilamiz:

Tonglar otar, sendan darak yo'q.

Kunlar botar, sendan darak yo'q.

(Shuhrat)

Yuqoridagi parchada struktural parallelizm, takror va antiteza sintaktik-stilistik figuralari birgalikda qo'llanib, stilistik konvergensiya hodisasini yuzaga chiqargan. Misolga diqqat qilinsa, sendan darak yo'q gapining satrlarda takrorlanishi (sintaktik takror) hamda satrlarda, ya'ni, parchaning har ikki satrida bir xil bo'laklar (sintaktik jihatdan bir xil vazifada va pozitsiyada kelgan birliklar)ning ega –kesim – to'ldiruvchi – ega – kesim tarzida bir xil tartiblanib, struktural parallelizm hosil qilganligi kuzatiladi. Bundan tashqari, tun – kun leksemalari vositasida antiteza usuli ham yuzaga kelganini kuzatishimiz mumkin. Natijada takror, struktural parallelizm va antitezaning birgalikda qo'llanishi orqali sintaktik-stilistik konvergensiya hodisasi yuzaga kelgan. Konvergensiyaning qo'llanishi she'riy matnga ta'sirchanlik, obrazlilik va stilistik bo'yoqdorlik berganligi bilan birga, matnning ichki ritmini shakllantirganligi ham kuzatiladi.

XULOSA

Umuman, stilistik konvergensiya muallif idiositilini tadqiq etish va baholashning asosiy omillaridan biri bo'lib, ijodkor mahoratining bir lisoniy belgisi sifatida yuzaga keladi. Idiositili to'la shakllangan tajribali ijodkorlar asarlarida qo'llaniladigan bu hodisa lingvopoetikada yuksak badiiy mahorat belgisi sifatida baholanadi. Stilistik vositalar konvergensiyasi yordamida muallif eng muhim axborotlarni birinchi planga chiqaradi va asosiy fikr-g'oyani yorituvchi lisoniy birliklar

TILSHUNOSLIK

ma'nosiga alohida urg'u beradi. Shu usulda konvergensiya muallif idiosstilida til shaxsi tomonidan obyektiv borliqning alohida va takrorlanmas tasviri yaratiladi, shu bilan birga matn interpretatsiyasi va muallifning pragmatik manerasi amalga oshiriladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Стилистический энциклопедический словарь русского языка. Под ред. Кожинной М. Н., 3-е изд., испр. и доп. - М., 2022. С.95-96.
2. Abdupattoev M.T. The role of occasional units in the formation of the authors' ideological style. // INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY. IBAST 2023. Volume 3, Issue 8, August P 186-190. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8278262>
3. Арнольд И. В. Стилистика. Современный английский язык: Учебник / 4-е изд., испр. и доп. – М.: Флинта: Наука, 2022, - С 304.
4. Riffaterre V. Criteria for Style Analysis // Word. – April 1959. №1. - P 15-18.
5. Винокур Т. Г. Говорящий и слушающий: Варианты речевого поведения / Изд. 4-е. – М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2019. – С 176.